

Ekologik tarbiyaning maqsadi va ahamiyati. Tibbiyot OTMlarida ekologik tarbiyaning asosiy maqsadi - kelajakdagi shifokorlar va sog'liqni saqlash mutaxassislarida ekologik masalalarga bo'lgan chuqur tushunchani shakllantirish va ularni atrof-muhit salomatligi bilan bog'liq muammolarni hal etishda faol ishtirok etishga tayyorlashdan iborat. Bu jarayon nafaqat an'anaviy tibbiy bilimlarni, balki ekologik jihatdan barqaror yashash tarzini ilg'or tibbiyot amaliyotiga integratsiyalashni ham o'z ichiga oladi.

Tibbiyot OTMlarida fanlarni ekologiyalashtirish, o'qitiladigan fanlar dasturlariga ekologik masalalarni kiritish va tibbiyot bilan bog'liq ekologik mavzularni muhokama qilishni nazarda tutadi. Masalan, epidemiologiya, sanitariya va gigiyena, kasalliklarning ekologik omillari kabi kurslarda atrof-muhit muhofazasi va uning inson salomatligiga ta'siri muhim o'rinni egallaydi. Bunday yondashuv talabalarda ekologik muammolarga nisbatan tanqidiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi va ularni ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'llarini izlashga undaydi.

Tibbiyot OTMlarida ekologik tarbiyani amalga oshirishda amaliy mashg'ulotlar va ilmiy tadqiqotlar muhim rol o'ynaydi. Talabalarni atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan tadqiqot ishlariga jalb qilish, sog'liqni saqlash tizimida ekologik muammolarni hal etishda innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga ko'maklashadi. Bu, o'z navbatida, tibbiyot sohasida ekologik bilimlarni kengaytiradi va sog'liqni saqlash tizimining ekologik jihatdan barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ekologik tarbiya va fanlarni ekologiyalashtirish masalalariga e'tibor berish, kelajakdagi sog'liqni saqlash mutaxassislarini atrof-muhit muhofazasi va inson salomatligi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni tushunishga va ularga samarali yondashishga tayyorlaydi. Bu yondashuv nafaqat individual salomatlikni saqlashga, balki global ekologik muammolarni hal etishga ham hissa qo'shadi. Shu sabablarga ko'ra, ekologik tarbiya va fanlarni ekologiyalashtirish masalalari nafaqat tibbiyot sohasida, balki jamiyatning barcha sohalarida dolzarb ahamiyatga ega. Bu, insoniyatning hozirgi va kelajak avlodlarining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan integral yondashuvdir.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Асадова Н. Ё. Ёшлар экологик маданиятини шакллантиришнинг айрим масалалари //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 420-423.
2. Ботиров М. Т., Норматова Ш. А., Курамотова Ш. А. Распространенность и особенности течения вирусных гепатитов и разработка комплекса мероприятий по оптимизации системы контроля ВГ //Университетская наука: взгляд в будущее. – 2020. – С. 128-131.
3. Норматова Ш. А., Ботиров М. Т., Юсупова М. Анализ чужеродных веществ в молочных продуктах в рационе питания населения ферганской долины //Университетская наука: взгляд в будущее. – 2020. – С. 273-277.

IJTIMOYIY GUMANITAR FANLARINI O'QITISH JARAYONIDA YOSHLARGA OILA QADRIYATLARINI SINGDIRISH

Eryigitova L.A.

Central Asian Medical University

Oila insoniyatning ilohiy va mo'jizaviy kashfiyoti. Oila masalasi qadimdan, insonlarni qiziqtirib kelgan. Insonni oiladan ayri tasavvur qilib bo'lmaydi. O'z navbatida oilasiz jamiyatni ham tasavvur qilib bo'lmaydi. Oila jamiyatning kichik bo'g'ini bo'lib, bugunga qadar turli davrlarni bosib o'tdi. Xalqimiz o'z tarixi davomida oila borasida yuksak madaniyatni, ming yillardan ortiq moddiy va ma'naviy merosni yaratgan. Oila xalqimiz uchun bebaxo qadriyat, muqaddas tushuncha sanalib, ajdodlardan kelajak avlodlarga meros sifatida o'tib kelgan.

Jadidchilik harakatining ulkan namoyondasi Abdurauf Fitrat "Oila" yoki oila boshqarish tartiblari asari orqali o'zining oila haqida qarashlarini, oila qurish zaruriyatidan tortib, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari, ota-ona farzandlarning huquq va burchlari, chaqaloq tarbiyasidagi onaning o'rni va vazifalari chuqur yoritib berilgan. Ijtimoiy omil sifatida oilaning

jamiyatdagi o'rni, bolalarning ijtimoiy, axloqiy va mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor berilgan. Shu bilan birga sog'lom, ma'rifatli oila u voyaga yetkazadigan har tomonlama yetuk avlodning shu millat va yurt iqtisodiy siyosiy rivojining, shu xalq shon-shuhrati, qudratining poydevori, abadul abad mavjudligining muhim shartlaridan ekanligi ta'kidlangan. Fitrat oila asosini to'g'ri qurmay turib jamiyatni rivojlantirish mumkin emas: "Qasrda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo'ladi" [1] – deb yozadi.

Yurtimizda oila masalasi bugunga kelib davlat siyosati darajasidagi masalalar qatorida e'tibordaligi quvonarli holat albatta. Zeroki, oila tinchligi va bardavomligi jamiyat taraqqiyotining muhim shartlaridandir.

Yangicha dunyoqarash bilan taraqqiyotning yangi marralari sari dadil odimlayotgan O'zbekistonning prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan bugungi kunda bizda oila muammolarini hal etish halqimizga munosib hayot tarzini ta'minlab berishga katta e'tibor qaratilayotgani bejizga emas. Ayniqsa voyaga yetib kelayotgan yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirish borasidagi vazifalar ta'limning barcha bosqichida bu muhim hayotiy masala sifatida qarash lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. Qolaversa, globallashib borayotgan bugungi dunyomizda yoshlar ongiga salbiy ta'sir etayotgan "ommaviy madaniyat" ko'rinishlaridagi bo'lgan yot g'oyalar ta'sirida oilaviy qadriyatlarga, uning muqaddasligi va rasmiy nikoh orqali turmush qurish, oilaning jamiyat oldidagi ma'suliyati masalalari borasida qadimdan shakllanib kelgan qadriyatlarga soya soladigan jihatlar ham jiddiy tahdid hisoblanadi. So'nggi yillarda oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning ko'lami va erishilayotgan natijalar quvonarli, albatta. Tarixiy taraqqiyotimizning qaysi bir davriga murojaat qilsak ham shunday hayot haqiqatini anglab yetamizki, farzand kamoloti masalasi hamma davrlarda ham, demakki bugun tez-tez eslab o'rganayotganimiz – birinchi va ikkinchi renessans – ma'naviy va ma'rifiy uyg'onish davrlarida ham eng e'tibordagi va ahamiyatli masalalar qatorida turganligiga guvoh bo'lamiz. Keyingi to'rt yil ichida 43 ta oliy ta'lim muassasalari tashkil etilib faoliyat boshlashi natijasida ularning soni bugungi kunda 131 taga yetdi. Yildan yilga oliy ta'lim olish istagidagi yoshlarning sonining ko'payib borayotganligi quvonarli holat. Maktab ta'limida esa "Zamonaviy maktab" konsepsiyasi bo'yicha ijod maktablari tashkil etildi, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida chuqurlashtirilgan maktablar tashkil etildi, aniq va tabiiy fanlar yo'nalishida maxsus maktablar faoliyatida ilm – fan innovatsiyalarga yondashish turadi. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "... maktab masalasi kelajagimizning hayot va mamot masalasidir. Uchinchi renessans maktab ostonasidan boshlanadi". Bu kabi tizimda o'qitilayotgan fanlar qatoridagi ijtimoiy gumanitar fanlarni o'qitishda milliy qadriyatlarimizning ajralmas qismi hisoblangan oila qadriyatlarini, oilada shaxslararo munosabatlar, oila iqtisodiyoti kabi bilim va malakalar o'rgatilib borilsa, ta'lim jarayonida muqaddas dinimizdagi islomiy qadriyatlarda, Qur'on va hadislarning mazmun mohiyati haqida o'tilayotgan fan mavzulari, o'rganilayotgan tarixiy davrdagi ana shu masalalar haqida bog'lab olib borilsa samara beradi, yoshlarimizda bu borada immunitet paydo bo'ladi. Ayniqsa bu kabi munozarali masalalar O'zbekistonning eng yangi tarixi, dinshunoslik, falsafa kurslarini o'qitishda ahamiyatga ega. Dunyo hamjamiyati esa yurtimizda oila borasida olib borilayotgan ishlarni e'tirof etmoqda. 2019-yil 1-aprelda AQSHning Nyu-York shaxrida besh kun davom etgan BMTning Aholishunoslik va taraqqiyot komissiyasi 52-sessiyasi hisobotida borasida amalga oshirilayotgan siyosat e'tirof etildi: "Kuzatishlarimiz va faoliyatimiz davomida o'zbek oilalari kabi o'z milliy qiyofasi va ma'rifiy imidjiga ega bo'lgan boshqa millat oilalarini kam uchratdik". Oila bir joyda qotib shakllanadigan qadriyat emas. Uning ibratxona va tarbiya maktabi bo'lishligi qanchalar tabiiy bo'lsa, zamonalar talablari va taraqqiyot sur'atlari bilan birga ijobiy ma'noda hali o'rganishimiz va o'rgatishimiz kerak bo'lgan jihatlar talaygina.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. E.Giddens. Sotsiologiya, Moskva, 2005
2. Oila ensiklopediyasi. Toshkent, 2019
3. Sh.Sodiqova. Oila tarbiyasi. Ma'naviyat, Toshkent, 2019
4. L.Eryigitova. Oilaviy ajrimlar: Yechim va muammolar, Termiz, 2021